

**RASMIY NUTQDA PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI***Rasulova Azizaxon Muydinovna**Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri**Shodiyeva Asila Anvarjon qizi**Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Rasmiy uslubga oid matnlarni pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat, presuppozitsiyaning ifodalanishi rasmiy nutqning yozma og'zaki shakllarida misollar orqali yoritib berilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, uzviy tahlil usullaridan foydalanildi. Rasmiy nutqqa oid matnlarda pragmatik maqsadning ifodalanishi isbotlangan, rasmiy nutqqa oid rasmiy ish hujjatlari va diplomatik yozishmalar matnlaridagi pragmatik maqsad misollar orqali dalillangan. Ish natijalarining ilmiy ahamiyati pragmatolingvistika sohasining nazariy masalalari, xususan, rasmiy nutqning lingvopragmatik xususiyatlariga aloqador muammolarni tadqiq etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldirish va kengaytirish bilan belgilanadi. Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan o'quv darsliklari tuzishda, nutq madaniyati, rasmiy matnning lingvistik tahlili kabi fanlarni o'tishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin. Ishimizda jamlangan dalillar ma'lum bir rasmiy nutqqa oid matnlarning pragmatik xususiyatlari bo'yicha yaratilajak monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar tayyorlash uchun xizmat qiladi.*

*Kalit so'zlar: rasmiy nutq, rasmiy ish hujjatlari, propositsiya, pragmatika, diktal ma'no, presuppozitsiya, pragmatik ma'no, sigmatik ma'no.*

**ВЫРАЖЕНИЕ ПРЕСУППОЗИЦИИ В СЛУЖЕБНОЙ РЕЧИ***Расулова Азизахан Муьдиновна**Заведующая кафедрой узбекского языка и литературы Ферганского государственного университета**Шодиева Асила Анваржон қизи**преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Ферганского государственного университета*

*Аннотация: Он заключается в выявлении прагматических особенностей текстов, относящихся к формальному стилю. Для освещения темы исследования использовались методы описания, сравнения, противопоставления, обобщения и интегрального анализа. Доказывается выражение прагматического назначения в текстах официальной речи, на примерах доказывается прагматическое назначение официальных рабочих документов и текстов дипломатической переписки. Теоретическая и практическая значимость исследования. Научная значимость результатов работы определяется дополнением и расширением научно-теоретических взглядов, связанных с исследованием теоретических вопросов в области прагматологии, в частности проблем, связанных с лингвопрагматическими особенностями официальной речи. Практическая значимость работы заключается в том, что она может быть использована в качестве теоретического пособия при составлении учебных пособий, при прохождении таких предметов, как культура речи, лингвистический анализ официального текста. Собранные в нашей работе доказательства послужат для подготовки монографий, учебников, учебных пособий, которые будут созданы по прагматическим особенностям текстов, относящихся к той или иной официальной речи.*

**EXPRESSION OF PRESUPPOSITION IN OFFICIAL SPEECH***Rasulova Azizakhon Muydinovna**Head of the Department of Uzbek Language and Literature of  
Fergana State University**Shodiyeva Asila Anvarjon kizi**Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature of Fergana State  
University*

*Abstract: It is to reveal the pragmatic features of the texts related to the official style, the expression of the presupposition is highlighted through examples in the written oral forms of the official speech. The methods of description, comparison, contrast, generalization, and integral analysis were used to illuminate the research topic. The expression of the pragmatic purpose in the texts of official speech is proved, the pragmatic purpose of official working documents and the texts of diplomatic correspondence is proved by examples. The scientific significance of the results of the work is determined by the addition and expansion of scientific-theoretical views related to the research of theoretical issues in the field of pragmalinguistics, in particular, problems related to the linguo-pragmatic features of official speech. The practical importance of the work is that it can be used as a theoretical resource in the preparation of educational textbooks, in passing such subjects as speech culture, linguistic analysis of official text. The evidence collected in our work will serve for the preparation of monographs, textbooks, training manuals to be created on the pragmatic features of texts related to a certain official speech.*

*Keywords: official speech, official working documents, proposition, pragmatics, dictal meaning, presupposition, pragmatic meaning, sigmatic meaning.*

Kirish. Jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilayotgan yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmatika sohasida qator ishlar olib borilmoqda. "Pragmatika (grek. pragma, pragmatos – ish, harakat, amaliy) – til belgilarining nutqdagi vazifasini tadqiq etuvchi tilshunoslikning alohida yo'nalishi". [2;155]

"Pragmatikaning manbasi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funkcionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi". [8;471]

Adabiyotlar tahlili. Pragmatika yuqoridagi olimlarning g'oyalari asosida shakllangan bo'lsa, termin sifatida amerikalik olim Ch.Morris tomonidan ilmiy tilga olib kirildi: "Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida CH.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan". [2;155] Keyinchalik ushbu termin bir necha olimlarning ilmiy asarlarida keng qo'llanilib, turli qarashlar vujudga keldi. Mana shu nazariyalar orqali XX asrning 60-70 yillarida tilshunoslikda pragmatik yo'nalish paydo bo'la boshladi.

Pragmatikaning umumiy ta'rifini SH.Safarov quyidagicha umumlashtiradi: "Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga

pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo‘nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o‘rtasida mavjud bo‘lib turgan «uzilish»larni biroz toraytiradi”. [7;50]

So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi verbal hamda noverbal munosabatning mazmuniy yo‘nalishiga asoslanishi, mazmunning so‘zlovchi yoki tinglovchi ichki maqsadlarini ifoda etishdagi vazifasi ishimizning mohiyatini tashkil etadi. Ustozimiz M.Hakimovning ta’kidlashicha, matnning pragmatik yo‘nalishi so‘zlovchi kommunikativ ichki niyatini aks ettirish darajasiga ko‘ra individual uslubiy janr shakllaridan birini tanlab oladi. Ana shu tanlangan janr shakli axborotning turlicha ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi va ular til bosqichida quyidagi tartibda nomlanishi mumkin: 1. Axborotning presuppozitsion janr shakli. 2. Axborotning propozitsional janr shakli. 3. Axborotning tagma’no janr shakli.

Rasmiy matnlarining berilayotgan axborotning shaklini belgilashda yuqoridagi pragmatikaning janr shakllaridan bo‘lgan propozitsiya va presuppozitsiya hodisalarini obyekt sifatida belgilab, ularning rasmiy matnlarda ifodalanishini tahlil qilib o‘tamiz.

Presuppozitsiya hodisasi haqidagi dastlabki qarashlar nemis mantiqshunosi G.Frege tomonidan ilgari surilgan. Uning ta’kidlashicha, presuppozitsiya hukmning mantiqiy asosi hisoblanadi”. [4;404] U fikrini isbotlash uchun “Kepler bechoralikdan olamdan o‘tdi” gapini misol ketiradi va bu erda presuppozitsiya sifatida Kepler degan odamning yashaganligini nazarda tutadi. G.Frege mavjudlik bildiruvchi ikkinchi hukmni presuppozitsiya deb ataydi. Presuppozitsiya termini tilshunoslikka P.Strosnon nomi bilan bog‘liq bo‘lib uning qarashlari ham Fregening qarashlariga juda yaqin turadi. Demak, presuppozitsiya jumladan anglashilgan ikkilamchi axborot deb qarash mumkin.

Presuppozitsiya ma’lum matn ifodalayotgan propozitsiyaning to‘g‘ri tushunilishiga imkon beradigan so‘zlovchilar o‘rtasidagi “bilimning umumiy fondi”, “oldindab bilishning jami” sifatida belgilanadi. [6;28]

Tilshunos olim M.Hakimov presuppozitsiyani tagma’no hodisadan farqini quyidagicha ta’kidlaydi: “...matnning semantik tuzilishi faqat presuppozitsiya bilan murakkablashib qolmay, balki so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat yashirin ma’no komponentlari bilan ham murakkablashadi. Ana shu ma’no komponentlaridan biri matn orqali yashirin bayonga ega bo‘luvchi tagma’no ko‘rinishidir. Tagma’noning matndagi bayoni ikki xususiyatga ega: birinchidan, ko‘p hollarda tagma’no oshkora verbal bayonga ega bo‘lmaydi. Bunday vaziyatlarda matndagi tagma’no ko‘rinishi propozitsiyalarning mantiqiy tahlili yordami bilan aniqlanadi”. [2;112]

Muhokama va natija. Shu kunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, tagbilim, ichki ma’no, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no terminlari qo‘llanilgan.

Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra, “presuppozitsiya” hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha ikkilamchi ma’lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonda namoyon bo‘ladi, ya’ni bunda shuni ham alohida ta’kidlash o‘tish joizki, presuppozitsiya hodisasi mantiq va tilshunoslik fanlari kesishmasida yuzaga kelgan hodisa hisoblanadi. Ushbu fanlar uzviy bog‘lanmas ekan presuppozitsiya hodisasining mohiyati to‘liqligicha namoyon bo‘lmay qolaveradi.

Presuppozitsiya hodisasi hukmning ikkilamchi ma’noga, axborotga, ayrim hollarda ikkilamchi humkga ishorasi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonda til birliklarining presuppozitsiya hodisasini yuzaga keltirishdagi roli muhim hisoblanadi. Ayrim o‘rinlarda nutq vaziyatida so‘z semantikasidagi ma’no atenkasi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi:

Ular bir necha vaqt suhbatlashishganlaridan keyin bir-birlarini tanib qolishdi.

Yuqoridagi misolda “tanib qolmoq” so‘zining ma’nosi nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda ikkilamchi ma’noga ishora qilib o‘tgan, ya’ni bu misoldan nutq adresatlari oldin ham bir-birlari bilan ko‘rishishgan yoki tanish bo‘lishgan degan ikkilamchi xulosa kelib chiqadi. Ayrim o‘rinlarda gap sturkturasidagi o‘zgarishlar bevosita ikkilamchi ma’noga (presuppozitsiyaga) ishora qilishi mumkin.

Unsin uchun –bechora qiz uchun –bu qanday mudhish sinov. (A.Qahhor “Dahshat” hikoyasi)

Yuqoridagi gap sturkturasidagi ajratilgan bo‘lakning ishtirok etishi gap semantikasidagi pragmatik ma’noga so‘zlovchining bevosita diqqatini tortadi. Agar ushbu misol “Unsin uchun bu mudhish sinov” jumlasini orqali ifodalanganda tinglovchi Unsinning ruhiy holatini to‘liq tushunib yeta olmagan bo‘lar edi. To‘ldiruvchining ajratilishi yuqoridagi misolda presuppozitsiya hodisanini yanada bo‘rttirib, ya’ni Unsinning shu ishga majburligi, uning bu sinovdan o‘tishdan ortiq chorasining yo‘q ekanligi haqidagi ikkilamchi axborot gap orqali ifoda etilayotgan asosiy propozitsiyasidan ham ahamiyatlilik kasb etgan.

Demak, yuqoridagi misollar va nazariy baxslar shuni ko‘rsatib turibdiki, presuppozitsiya hodisasi nutqiy jarayonda turli vositalar va birliklar orqali ifodalanishi mumkin.

Rasmiy nutqning pragmasemantik xususiyatlaridan biri, unda bir necha vositalar, ya’ni rasmiy nutqqagina xos bo‘lgan vositalar presuppozitsiya hodisasiga ishora qilib o‘tadi.

Uslubshunos olimlar qarashlari va o‘rganishlaridan bilamizki, rasmiy uslubning o‘ziga hos belgisi – ifoda etilayotgan fikrning qisqa va lo‘nda ekanligi. Aniq va ravshan tarzda bayon etilishidir. Bu ma’lumotdan xuddi rasmiy nutqda hech qanday pragmatik hodisaga o‘rin qolmagandek ko‘rinadi. Lekin biz bu ishimizda rasmiy nutqning pressopozitsiya aspektiga to‘xtalib o‘timishning sababi nimada? degan savolga javob bermoqchimiz. Dunyo o‘zgarimoqda. Bugungi globallashuv jarayonida axborot eng muhim qurolgan aylanib bormoqda. Uning xavfsizligini ta’minlash mamlakat miqyosida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu o‘z navbatida, rasmiy nutqning tadrijiy rivojiga ham ta’sir etmay qolgani yo‘q. Bugungi kunda rasmiy nutqqagina xos bo‘lgan birliklar ostiga minglab ikkilamchi axborotlar yashirilmoqda. Ishimizda aynan rasmiy nutqning pragmatik aspektini tekshirish obyektini sifatida olinishi ham shu tadrijiy jarayonni o‘rganishdir.

Presuppozitsiya xodisasi nutqiy jarayon ishtirokchilariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beruvchi, nutq egalariga muomala jarayonida tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko‘rsatib berishda yordamga keluvchi xodisadir.

Rasmiy nutqda bu jarayonga juda ko‘p o‘rinlarda guvoh bo‘lishimiz mumkin. Fikrimizning isboti tariqasida adibimiz A.Qahhor ijodidan bir jumla keltiramiz.

Ho‘kizingiz hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. (A.Qahhor, “O‘g‘ri” hikoyasi)

Ellikboshining nutqidan olingan ushbu parchani konteksning qolgan parchalariga bog‘lagan holda tahlil qilarkanmiz. Ijodkorning presuppozitsiya hodisasidan unumli tarzda foydalangani orqali so‘zlovchining ichki niyatini, ikkilamchi hukmni ifodalab berganiga guvoh bo‘lamiz. Yuqoridagi misolda rasmiy nutqga xos tarzda majhul nisbatdagi fe‘l bilan ifodalanmoqda (Yuqorida ta’kidlaganimizdek, rasmiy nutqda gaplarning kesimi majhul nisbatdagi fe‘llar bilan ifodalanadi). Lekin ijodkor shu oddiygina nisbat shakli orqali so‘zlovchining ichki niyatini hukm shaklida ifodalab bermoqda. Ya’ni Qobil boboning ho‘kizi topiladi. Lekin ellikboshi tomonidan emas. Chunki ellikboshi majhul nisbatdan foydalanish orqali undan umid qilish kerak emasligiga ishora qilib ketgan. Asarning keyingi parchalaridagi voqealar rivoji esa ushbu fikrlarimizning tasdig‘i hisoblanadi:

Ho‘kizingiz hech qayoqqa ketmaydi, topiladi. (A.Qahhor, “O‘g‘ri” hikoyasi)

Jumlasini majhul nisbat shaklining qo‘llanishi orqali “Ho‘kizingizni men topib



bermayman” degan ikkilamchi axborotning uzatilishiga xizmat qilib presuppozitsiya hodisanini yuzaga keltirgan.

Rasmiy nutqda keng qo‘llaniluvchi nutqiy odat tusiga kirgan buyruq ohanggiga ega gaplar tahliliga e‘tibor bersak, uslubning talabi nuqtayi nazaridan ikkilamchi axborotning ifodalanishiga guvoh bo‘lamiz:

Bu yerda chekish mumkin emas!

Yuqoridagi jumladan ifodalanyotgan asosiy proppozitsiya chekish mumkin emasligi. Endi gap strukturasi va uslub talabi jihatidan yondashsak, “Bu yer chekilmaydigan joy” degan ikkilamchi axborotni anglashimiz mumkin.

“O‘zbekiston so‘mini soxtalashtirish qonunga muvofiq ta‘qib qilinadi”

Yuqoridagi gapni tahlilga tortaylik:

1) gap orqali ifodalanayotgan asosiy proppozitsiya davlatning valyutasini soxtalashtirgan insonlarning ta‘qib qilinishidir;

2) yuqoridagi misolni pragmatik jihatdan tahlil qilsak, turli ikkilamchi axborotlarning ifodalanayotganini va ushbu axborotlar turli til birliklari tomonidan yuzaga keltirilayotganiga guvoh bo‘lamiz.

a) ushbu maqolda qo‘llangan “so‘m” leksemasi “O‘zbekistonning valyutasi, ya‘ni pul birligi “so‘m” degan ikkilamchi axborotni ifodalamoqda;

b) “qonunga muvofiq” birikmasi esa O‘zbekistonning qonuniy davlat ekanligi haqida ikkilamchi axborotni yuzaga keltirmoqda. Chunki ushbu ibora shariatga muvofiq emas, qonunga muvofiq, yoki ixtiyoriy emas, aniq qonunlarga muvofiq degan o‘zgarma hukmni yuzaga keltirgan.

c) “soxtalashtirish” leksemasi ta‘qib qilinishga asos bo‘ladi, degan ikkilamchi hukmni ifodalab kelmoqda. Ya‘ni soxtalashtirmasang, ta‘qib qilinmaysan. Shu yerda “soxtalashtirmang” hukmning ham ifodalanayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

d) kesim tarkibida ma‘lum shaxs-son shakllarining qo‘llanmayotgani e‘tibor beraylik. Bunda so‘zlovchi tinglovchining shaxsidan qat‘iy nazar ta‘qib qilinishi haqida ogohlantirmoqda.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shularni aytib o‘tish joizki, har bir nutq uslubi ma‘lum til vositalari, ma‘lum sintaktik sturukturalarning yig‘indisi o‘laroq yuzaga kelar ekan, bu sturukturalarni tanlash so‘zlovchining ixtiyoridadir. Bu barcha uslub birliklari o‘zida so‘zlovchining yashirin xohish va istaklariga bo‘ysundirilishidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati:

1. Арутюнова Н.Д. Предложение и смысл. М., 1976, с.50.
2. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Академнашр”, 2013. – 155-бет.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.401.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: “Академнашр”, 2012. – 404-бет.
5. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992. - 28-бет.
6. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // ЎТА. 1986. №6
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
8. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. -М., 1985.